

**“QISASI RABG‘UZIY” ASARIDA QO‘LLANGAN YUKLAMALAR TADQIQIGA DOIR****Ergashova Gulsanam Valijon qizi****Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:****o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi****E-mail: [gulsanamergashova@774gmail.com](mailto:gulsanamergashova@774gmail.com)****ORCID ID 0009-0009-1126-4574**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20793282>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIII-XIV asrlarga oid turkiy yodgorliklardan biri – Nosiruddin Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asari tilidagi yuklamalar lisoniy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda yuklamalarning gap tarkibidagi vazifalari, ularning ma‘no turlari hamda nutqning ta’sirchanligini oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Ayniqsa, asarda faol qo‘llangan affiksalar yuklamalarning ( -mu, -oq/-ök, -gina) turli so‘z turkumlari bilan birikishi va ular orqali ifodalangan so‘roq, ta’kid, aynanlik kabi ma‘no ottentaklari misollar yordamida ko‘rsatib berilgan. Maqola yakunida yuklamalarning eski o‘zbek tili grammatik tizimidagi ahamiyati haqida ilmiy xulosalar keltirilgan.

**Kirish so‘zlar:** “Qisasi Rabg‘uziy”, yuklama, affiksalar yuklamalar, eski o‘zbek tili, morfologiya.

**Аннотация:** В данной статье проводится лингвистический анализ частиц в языке одного из тюркских памятников XIII–XIV веков — произведения Носируддина Рабгузи «Кисаси Рабгузий». В исследовании рассматриваются функции частиц в структуре предложения, их семантические типы, а также их роль в усилении выразительности речи. Особое внимание уделяется активно употребляемым в тексте аффиксальным

частицам (-ми, -оқ/-ök, -гина), их сочетанию с различными частями речи и выражаемым ими оттенкам значения, таким как вопрос, усиление и конкретизация. В заключении статьи делаются научные выводы о значении частиц в грамматической системе староузбекского языка.

**Ключевые слова:** «Кисаси Рабгузий», частицы, аффиксальные частицы, староузбекский язык, морфология.

**Abstract:** This article presents a linguistic analysis of particles in the language of one of the Turkic written monuments of the 13th–14th centuries — Nasiruddin Rabghuzi’s work “Qisasi Rabghuziy.” The study examines the functions of particles within sentence structure, their semantic types, and their role in enhancing the expressiveness of speech. Special attention is given to frequently used affixal particles (-mu, -oq/-ök, -gina), their combination with different parts of speech, and the shades of meaning they convey, such as interrogative, emphasis, and specification. The article concludes with scientific findings on the importance of particles in the grammatical system of Old Uzbek.

**Keywords:** “Qisasi Rabghuziy”, particles, affixal particles, Old Uzbek language, morphology.

Tilshunoslikda yordamchi so‘z turkumlari nutqning mazmunan boyishi va fikrning aniq ifodalanishida muhim ahamiyatga ega. Shunday yordamchi

birliklardan biri yuklamalar bo'lib, ular mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan holda, gap mazmuniga turli qo'shimcha ma'no ottenkalarini yuklaydi. Yuklamalar orqali ta'kid, shubha, so'roq, inkor yoki tasdiq kabi ma'nolar ifodalanadi. Shu jihatdan yuklamalar tilning grammatik va uslubiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita hisoblanadi.

XIII - XIV asrlarga oid yodnomalar tilida iste'molda bo'lgan yuklamalar shakliy ifodasi, qo'llanishi, ma'no xususiyati jihatidan bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega.<sup>1</sup> Shu nuqtai nazardan, eski o'zbek tilida qo'llangan yuklamalar tuzilishi va qo'llanishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh yuklamalar affikslarga o'xshab, biror so'zga qo'shib keladi va o'sha so'zga yoki butun gapga qo'shimcha ma'no beradi. Ikkinchi guruh yuklamalar esa so'z yoki gap oldidan kelib, mustaqil so'z shaklida qo'llanadi. Biroq bunday yuklamalar mustaqil lug'aviy ma'noga ega bo'lmay, gap mazmunini kuchaytirish, aniqlashtirish yoki ta'kidlash vazifasini bajaradi.

Aynan shu nazariy qarashlar “Qisasi Rabg'uziy” asari tilida yaqqol namoyon bo'ladi. Asarda yuklamalar gap tarkibida faol ishtirok etib, voqealarning ifodasini jonlantiradi, qahramonlar nutqiga ta'sirchanlik bag'ishlaydi hamda muallif fikrining aniqligini ta'minlaydi. “Qisasi Rabg'uziy” asarida yuklamalar yuqorida qayd etilgan ikki guruh doirasida qo'llanib, ayrimlari so'zga qo'shib kelgan, ayrimlari esa mustaqil holda gap oldidan ishlatilgan. Shu tariqa, asar tili grammatik jihatdan puxta va mazmunan boy ekanini ko'rsatadi. Asarda 3 ta yuklama qo'llangan bo'lib, ular turli ma'no ottenkalarini bilan nutqni yanada boyitadi. “Qisasi Rabg'uziy” asarida birinchi guruh yuklamalari, ya'ni so'zga qo'shib ishlatiladigan yuklamalar keng qo'llanadi. Xususan, *-mu*, *-gina*, *-oq* kabi yuklamalar asarda faol ishtirok etadi. **-mu yuklamasi.** *-mu* yuklamasi, asosan, so'roq ma'nosini bajarib keladi va oldingi so'zga qo'shib yoziladi: *Manga zamon bergil evumga borayin, saning tangring manga mulk berurmu ko'rayin (98-bet). Ibrohim aydi: "Bir kishi taqi musulmon yo'qmu erdi?" (91-bet).*

Bundan tashqari *-mu* yuklamasi asarda so'roq ma'nosidan tashqari noaniqlikni ham ifodalab keladi: *Burun yalavochliq zohir qildi, aydi: «Sizga ayto berayin yovuz ish kelmasdin burun ul uzum oqmu erdi, qizilmu erdi, achig'mu erdi, suchukmu erdi?» (134-bet) Ulamolar arosinda ixtilof bor. Zabih Ismoilmu yo Is'hoqmu? (76-bet).*

**-o'q/-ök yuklamasi.** “Qisasi Rabg'uziy” asari tilida *-o'q/-ök* yuklamasi eng faol qo'llanilgan yordamchi birliklardan biri bo'lib, u, asosan, ta'kid va vaqt munosabatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu yuklama o'zidan oldingi so'zning ma'nosini kuchaytiradi va uni gapdagi boshqa bo'laklardan alohida ajratib ko'rsatadi: *Mubashshiraga aydilar: “Bu yetimni o'proq to'nlar birla-o'q tutg'il, arig' to'nlar kiydurmagil, qatig' ishlar buyurgil, o'gransun”, tedi (112-bet). Mundag'-o'q otalar elnindin onalar rahminga, onalar rahmindin o'g'ullar elninga o'vrulur erdi (103-bet).* Asar matnida ushbu yuklamaning qo'llanilishini quyidagi ma'no turlariga ajratish mumkin:

1. Yuklama kishilik olmoshlari va otlarga qo'shib, harakatning aynan o'sha shaxs tomonidagina bajarilishini yoki predmetning o'ziga xosligini tasdiqlaydi: *Ilohiy, sening sanongni ayta olmas man, sen-o'q, sano ayg'aysen (152-bet).*

2. Vaqt bildiruvchi so'zlarga qo'shilganda, harakatning kutilganidan tez sodir bo'lganini yoki bir harakat ortidan ikkinchisi darhol ergashganini bildiradi: *Ey Muhammad, rahmat qiligli ermasman, ertadin-o'q rahmat qilg'uchiman (155-bet). -gina yuklamasi.* Asarda ushbu yuklama ajratib ko'rsatish, chegaralash kabi ma'nolarni ifodalab keladi<sup>3</sup>: *Mundog' qudrat birgina Tengridin o'zgada yo'q (73-bet).*

Xulosa qilib aytganda, “Qisasi Rabg'uziy” asaridagi yuklamalar tili o'zbek tili tarixiy morfologiyasining boy imkoniyatlarini o'zida aks ettiruvchi muhim vositadir. Asarda ushbu yordamchi birliklar shunchaki grammatik shakllar bo'lib qolmay, matnning mantiqiy-uslubiy yaxlitligini ta'minlashga, fikrni ta'kidlash va voqelikka munosabat bildirishga xizmat qilgan. Xususan, affiksial yuklamalarning turli turkumdagi so'zlar bilan birikib, ma'no ko'lamini kengaytirishi asar tilining XIII-XIV asrlardagi o'ziga xos taraqqiyot darajasini ko'rsatadi. Binobarin, mazkur birliklarning tadqiq etilishi o'zbek tili tarixini, uning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini chuqurroq anglashda alohida ilmiy qimmatga ega.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. XIII-XIV asrlar turkiiy adabiiy ёdgorliklar tili. -T.: FАH, 1986. –B. 264.
2. Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. -Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1973. -Bet.230.
3. Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. -Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1973. -Bet.231.